

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 333 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиев Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojjakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	



IPAKCHILIK KLASTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI



Xudoykulov Mamarasul Radjabovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

[ORCID:0009-0003-5013-367X](https://orcid.org/0009-0003-5013-367X)

E-mail: hudoykulovmamarasul@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston ipakchilik tarmog'ini klaster asosida rivojlantirishning o'rta muddatli strategiyasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari hududiy klasterlarning strategik pozitsiyasini aniqlash, barqaror iqtisodiy o'sish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun institutsional mexanizmlarni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ipakchilik tarmog'i, klaster modeli, SWOT tahlil, ESG, Triple Helix, qiymat zanjiri, hududiy rivojlanish, investitsiya strategiyasi, innovatsiya, O'zbekiston.

Abstract. The article analyzes the medium-term strategy for the development of the Uzbek silk industry based on clusters. The results of the study indicate the possibilities of determining the strategic position of regional clusters, forming institutional mechanisms for sustainable economic growth and production of export-oriented products.

Keywords: silk industry, cluster model, SWOT analysis, ESG, Triple Helix, value chain, regional development, investment strategy, innovation, Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируется среднесрочная стратегия развития шелковой промышленности Узбекистана на основе кластеров. Результаты исследования свидетельствуют о возможностях определения стратегического положения региональных кластеров, формирования институциональных механизмов для устойчивого экономического роста и производства экспортно-ориентированной продукции.

Ключевые слова: шелковая промышленность, кластерная модель, SWOT-анализ, ESG, тройная спираль, цепочка создания стоимости, региональное развитие, инвестиционная стратегия, инновации, Узбекистан.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni milliy iqtisodiy siyosat oldiga bir qator strategik ustuvor vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, tarmoqlararo diversifikatsiyani chuqurlashtirish, qo'shimcha qiymatni mamlakat ichida saqlab qolish hamda qishloq joylarda barqaror bandlikni kengaytirish kabi yo'nalishlar davlat rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu maqsadlarga erishishda multifunksional, ya'ni agrar va industrial xususiyatlarni birlashtiruvchi tarmoqlarning roli ortib bormoqda. Ipakchilik tarmog'i ana shunday sohalardan biri bo'lib, ta'limotani ko'p bosqichli qiymat zanjiriga ega, agrar ishlab chiqarishdan tortib, qayta ishlash va eksportbop tayyor mahsulot yaratishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

So'nggi yillarda ushbu sohani tiklash va tizimli ravishda rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan qator iqtisodiy mexanizmlar joriy etildi. Xususan, 2017–2023-yillar mobaynida amalga oshirilgan imtiyozli kreditlash, yer va soliqliq preferensiyalari hamda pilot klaster loyihalari pilla xom ashyosi hajmini 1,6 barobarga oshirishga xizmat qildi. Biroq ushbu o'sish, asosan, tarmoqning boshlang'ich agrar segmentida kuzatilmoqda. Tarmoq hali-hanuz yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini to'liq namoyon etganicha yo'q. Bu holat qayta ishlash zanjiridagi uzilishlar, yetarlicha chuqurlashmagan sanoat hamkorligi va institutsional muvofiqlikning zaifligi bilan izohlanadi.

Ipakchilik tarmog'ini klaster modeli asosida rivojlantirish xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni tizimlashtirish va bozorga yo'naltirilgan strategik rejalashtirishni talab qiladi. Lekin klasterlashuvning o'zi avtomatik ravishda rivojlanishni ta'minlamaydi. Buning uchun o'rta muddatli, maqsadli strategiya zarur bo'lib, unda investitsiya oqimlari, texnologik modernizatsiya, bozor infratuzilmasi va kadrlar salohiyati kabi omillar uyg'un holda hisobga olinishi kerak. Shuningdek, jahon bozorida ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlarining ahamiyati ortayotgan, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari va raqamli yechimlar tobora ko'proq talab etilayotgan bir sharoitda, ipakchilikni transformatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyot va tarmoq nazariyasining muhim o'rganish yo'nalishi bo'lib, vaqt o'tishi bilan korxonalar va tarmoqlar klasterlari qanday o'sishi va rivojlanishini tushunishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanishlar, hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi omillarga oid tushunchalarni ochib berishi mumkin. Klasterga oid iqtisodiy adabiyotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning turlicha nazariyalarini uchratishimiz mumkin. Mavzuimizdagi asosiy urg'u xorijiy tajriba va ularni O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy etish va samarali foydalanish imkoniyatlariga qaratilgan. Adabiyotlarga birmabir murojaat qilsakda, o'rganish predmetimizning mohiyatini ochishga harakat qilsak. Xususan, Klaster tahlil usullari tibbiyot, psixologiya va bozor tadqiqotlari kabi turli sohalarda klaster rivojlanishini tushunishga yordam beradigan ko'p o'zgaruvchan ma'lumotlardagi tuzilmalarni aniqlash uchun juda muhimdir [1].

Tarmoqlar ichida klasterlash yoki tranzitivlikni o'z ichiga olgan modelllar klasterlarning shakllanishi va evolyutsiyasi haqida tushuncha beradi, bu klaster ichidagi tugunlar yoki firmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhimligini ta'kidlaydi [2].

Klasterlash uchun aralash modellardan foydalanish umumiy xususiyatlar asosida ma'lumotlar ichidagi guruhlarini aniqlashga statistik yondashuvni ta'minlovchi muhim kichik soha sifatida paydo bo'ldi, klaster shakllanishi va evolyutsiyasi haqidagi tushunchamizni yanada kengaytirdi [3].

Vaqt o'tishi bilan klaster rivojlanish dinamikasini tushunish juda muhim, modelllar klasterlar shakllanish, o'sish, yetuklik va ehtimol pasayishning hayot siklini kuzatishini taklif qiladi. Ushbu nuqtayi nazar klaster rivojlanishining yo'lga bog'liq tabiatini ta'kidlaydi [4].

Klasterlar iqtisodiy rivojlanish uchun ko'plab afzalliklarni, jumladan, rivojlangan innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni taqdim etsada, klasterni rivojlantirish modelllarini amalga oshirish, ayniqsa, kam rivojlangan sharoitlarda muhim muammolarga duch keladi. Modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish klasterni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bunda asosiy tizimli to'siq sifatida sarmoya va institutsional resurslarning tarmoq bo'ylab noteng taqsimlanayotgani qayd etiladi: iqtisodiy faollik asosan tez aylanadigan "birlamchi" bosqichlarda, ya'ni ipak qurti yetishtirish va xom ashyoni topshirish jarayonlarida to'plangan bo'lsa, yuqori qo'shilgan qiymat yarataydigan "chuqur qayta ishlash", dizayn, brendlash va xalqaro marketing bo'g'inlari yetarlicha kapitalni jalb qila olmayapti. Natijada tarmoq ichki tuzilishidagi nomutanosiblik ishlab chiqarish zanjirida vertikal integratsiyani cheklab, eksportbop va texnologik samarali segmentlar rivojini sekinlashtirmoqda.

Shu bois, tarmoqni yangi bosqichga olib chiqish uchun o'rta muddatli rivojlanish strategiyasi doirasida investitsiya oqimlarini tarmoq bo'ylab mutanosib va samarali taqsimlaydigan, raqamlashtirilgan va ESG tamoyillariga asoslangan yangi institutsional investitsiya tizimiga o'tish zarur. Bunday tizim nafaqat moliyaviy resurslar manbalarini diversifikatsiyalash, balki ularni klasterning texnologik darajasi va raqobatbardoshligiga qarab segmentlarga yo'naltirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv orqali har bir hududning mutaxassislashuvini hisobga olgan holda regional klasterlarning strategik pozitsiyasi mustahkamlanadi hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun institutsional muhit shakllantiriladi.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda tabiiy ipak miqdor jihatidan jahon to'qimachilik sanoati xom ashyo aylanmasining atigi 0,5 foizidan kamini tashkil etsada, uning yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lishi va «lyuks» segmentdagi betakror mavqei tufayli geoiqtisodiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. 2024-yilda FAO tomonidan e'lon qilingan global bozor tahliliga ko'ra, 2023-yilda dunyoda 110 ming tonna tabiiy xom ipak ishlab



chiqarilgan bo'lib, undan 91 foizi Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi. Jumladan, Xitoy (55 ming t) va Hindiston (34 ming t) yetakchi ishlab chiqaruvchi mamlakatlar sifatida ajralib turibdi¹.

O'zbekiston ham ushbu global bozorda o'z o'rnini tobora mustahkamlamoqda. 2023-yil yakunida mamlakat qariyb 26 ming tonna pilla xom ashyosini yetishtirish orqali dunyodagi uchinchi yirik ishlab chiqaruvchi va oltinchi yirik eksportchi sifatida qayd etildi². Bu esa mamlakatning tabiiy resurslarga boyligi va pillachilikdagi tarixiy kompetensiyalarini tasdiqlaydi. Biroq mavjud eksport portfeli tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi bozorlarga asosan xom ashyo yo'naltirilmoqda, ya'ni yuqori qo'shilgan qiymat asosan xorijda shakllanmoqda. Bunday holatning asosiy sabablari sifatida ichki qayta ishlash quvvatlarining tarqoqligi, klasterlararo logistika mexanizmlarining zaifligi va marketing-dizayn bo'g'inlarida kompetensiyalar yetishmasligi ta'kidlanadi.

Natijada tabiiy ipakning jahon «premium» toifasidagi mustahkam o'rniga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti undan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shu bois, tarmoqni qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan yuqori qiymatli mahsulotlar tuzilmasiga o'tkazish, ya'ni vertikal-integral klasterlar asosida qayta tashkil etish dolzarb strategik vazifaga aylanmoqda. Bunday yondashuv nafaqat eksportdan tushadigan valyutani ko'paytirish, balki mahalliy sanoat salohiyatini chuqurlashtirish va to'laqonli tarmoq kooperatsiyasini shakllantirish imkonini ham yaratadi.

Ipakchilik tarmog'ini zamonaviy iqtisodiy modellar asosida rivojlantirish, uni klasterlashtirish orqali qayta tashkil etish va o'rta muddatli strategik maqsadlar bilan integratsiyalash bizning tadqiqotimizning nazariy va metodologik poydevorini tashkil etadi. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, pillachilikni faqat xom ashyo yetishtirishga asoslangan tarmoq emas, balki yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan kompleks qiymat zanjiri sifatida rivojlantirish zaruriyati bilan belgilanadi. Jahon tajribasi va ilmiy nazariyalar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv pillachilikni faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va texnologik rivojlanish drayveriga aylantiradi.

Maykl Porter klasterlar va raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, ma'lum tarmoqlarda shakllanadigan klasterlar o'sha tarmoqning jahon bozoridagi raqobatdoshligini belgilaydi. Uning «milliy romb» modeli to'rtta asosiy element: ichki talab, resurs bazasi, aloqador sohalar va kompaniya strategiyasi o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ta'riflaydi³. Ipakchilik sohasida bu elementlar agroklmatik resurslar, milliy hunarmandchilikka bo'lgan ichki talab, to'qimachilik, dizayn va logistika sohalar bilan bog'liq tarmoqlar hamda klaster ichidagi raqobat va innovatsiya jarayonlari sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, klaster modelining joriy etilishi pillachilikning barcha bosqichlarini tutzordan tortib eksportgacha yaxlit va samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, Triple Helix modeli, ya'ni universitetlar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional hamkorlik pillachilik tarmoqlarini innovatsion klasterlar asosida transformatsiya qilishda muhim nazariy zamin bo'ladi⁴. O'zbekiston sharoitida bu hamkorlik agrar universitet va ilmiy markazlarning seleksiya, biotexnologiya va raqamlashtirish sohasidagi tadqiqotlari, xususiy sektorning ushbu bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etishi va davlat tomonidan moliyaviy-huquqiy qo'llab-quvvatlash orqali ro'yobga chiqishi mumkin. Natijada tarmoqda innovatsiya tezligi ortib, mahsulot diversifikatsiyasi va bozorda raqobatbardoshlik yuqorilaydi.

Qiymat zanjiri nazariyasi nuqtayi nazaridan, mahsulot yaratilishining har bir bosqichi xom ashyodan tortib tayyor mahsulot va eksportgacha o'z qo'shimcha qiymati bilan umumiy iqtisodiy samaradorlikka hissa qo'shadi. Agar tarmoq asosan xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning iqtisodiy salohiyati cheklangan bo'ladi. Ammo qayta ishlash, tayyor mahsulot dizayni va marketing kabi «downstream»⁵ bosqichlarni rivojlantirish orqali mamlakat ichida qo'shimcha qiymat saqlanadi va eksport salohiyati oshadi⁶. FAO va Asian Productivity Organization ma'lumotlariga ko'ra, qayta ishlash darajasi 60%dan ortiq bo'lgan holatda total faktor samaradorligi 0,71ga yetishi mumkin, xom ashyo eksportiga suyangan tizimlarda esa bu ko'rsatkich 0,46dan oshmaydi⁷.

Shu bilan birga, zamonaviy investitsiya va moliyalashtirish modellari ham tarmoqni barqaror rivojlantirishning nazariy-amaliy asosi hisoblanadi. Xususan, ESG atrof-muhit (Environmental), ijtimoiy (Social) va korporativ boshqaruv (Governance) ko'rsatkichlariga bog'langan moliyalashtirish mexanizmlari, masalan, «Green Finance», «Social Sukuk» va boshqalar eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda barqarorlik va samaradorlikni ta'minlaydi⁸. ESG mezonlari asosida sarmoya jalb qilish nafaqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlaydi, balki xalqaro bozorlarda ishonch darajasini ham oshiradi.

1 <https://www.pib.gov.in/PressReleasePage.aspx?PRID=2120877#:~:text=This%20growth%20is%20supported%20by%20the%20expansion,in%202017%2D18%20to%2038%2C913%20MT%20in%202023%2D24.> https://en.wikipedia.org/wiki/Silk_industry_in_China

2 Yangi O'zbekiston gazetasi, 2024-yil 11-may soni https://tsue.uz/media/uploads/2024/05/13/5aad430d-fc43-384e-372d-7bac99334a3d_media.pdf

3 Porter, M. (1990) The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York.

4 Henry Etzkowitz, Loet Leydesdorff, The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university–industry–government relations, Research Policy, Volume 29, Issue 2, 2000, Pages 109–123, ISSN 0048-7333, [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4). (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0048733399000554>)

5 Downstream (inglizchadan — «oqim bo'ylab pastga») — iqtisodiy va sanoat sohalarida ishlab chiqarish zanjirining quyi bosqichlari, ya'ni tayyor mahsulotni qayta ishlash, qiymat qo'shish, bozorga chiqarish va sotishga qaratilgan jarayonlarni anglatadi.

6 Kaplinsky, Raphael. (2001). A Handbook for Value Chain Research. 113.

7 <https://www.fao.org/news/archive/news-by-date/2021/en/>

8 <https://www.unepfi.org/events/global-roundtable-2022/>

Ipakchilik klasterlariga asoslangan o'rta muddatli rivojlanish strategiyasining ilmiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, uni qo'llab-quvvatlovchi asosiy nazariy ilmiy-metodologik asoslarning uzviy birlashuvi zarur. Birinchidan, Maykl Portering "milliy raqobatbardoshlik rombi" modeli tarmoq ichida samarali klaster muhitini shakllantirishga xizmat qilib, yuqori sifatli ichki talab, ixtisoslashgan resurslar va strategik raqobat-hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Bu nafaqat tarmoqdagi ichki samaradorlikni oshiradi, balki mahalliyashgan innovatsiya va raqobatbardoshlikni ham rag'batlantiradi.

Ikkinchidan, "Triple Helix" modelida davlat, biznes va ilmiy-akademik salohiyat subyektlari o'rtasidagi strategik hamkorlik innovatsion tarmoq transformatsiyasining asosiy drayveri sifatida qaraladi. Bu yondashuv pillachilikning seleksiya, biotexnologiya, chig'irqlash, dizayn va eksport kabi zanjir bo'g'inlarini sinxron faollashtirish orqali texnologik yangilanish sur'atini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, pillachilik sohasida agrobiotexnologiya va raqamli yechimlarni amaliyotga joriy etishda ta'lim-ilmiy muassasalar, xususiy sektor va davlat institutsional qo'llab-quvvatlovi o'zaro to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi.

Uchinchidan, ESG mezonlari bilan bog'langan zamonaviy moliyalashtirish yondashuvlari, jumladan, "yashil" va "islomiy" moliyaviy instrumentlar investitsiya siyosatining ijtimoiy-ekologik barqarorlikka ta'sirini baholash imkonini beradi. FAO, UNEP FI kabi xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari ESG ko'rsatkichlariga asoslangan moliyalashtirish modellari tarmoqda umumiy moliyaviy samaradorlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylanayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, raqamli moliyaviy monitoring vositalari orqali investitsiya yo'nalishlari, ijtimoiy ta'sir va subsidiya samaradorligini real vaqtida baholash imkoniyati vujudga keladi.

Shunday qilib, Porter, Triple Helix va ESG portfel modellarning uyg'unlashuvi O'zbekistonda ipakchilik klasterlarini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos vazifasini o'taydi. Bu yondashuv qo'shimcha qiymatni mamlakat ichida saqlab qolish, texnologiya va bilimlar tez aylanishini ta'minlash hamda investitsiya xatarlarini kamaytirish imkonini beradi. Mazkur nazariy baza asosida ishlab chiqiladigan o'rta muddatli strategiya klasterlarni ilmiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

O'rta muddatli rivojlanish strategiyasi doirasida hududiy klasterlarni aniq va maqsadli pozitsiyalash tarmoq bo'ylab resurslar, texnologiyalar va bilimlar oqimini muvozanatli taqsimlashning eng samarali instrumentlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv, xususan, tarmoqning ichki hududiy ixtisoslashuvini shakllantirish va klasterlar o'rtasida funksional hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Navoiy hududlari tabiiy iqlimiy, infratuzilmaviy va kadrlar salohiyati nuqtayi nazaridan ipakchilik zanjirining turli bosqichlari uchun qulay shart-sharoitlarga ega. Shu sababli mazkur hududlar «pilot klasterlar» sifatida tanlanishi maqsadga muvofiqdir.

1, 2, 3-jadvallarda Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Navoiy hududlari uchun SWOT tahlil taqdim etildi. Bu tahlil natijalari investitsiya siyosatini, texnologiya joriy etish yo'nalishlarini hamda kadrlar tayyorlash dasturlarini hududiy kesimda aniqlashtirishga asos bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Farg'ona vodiysi ipakchilik klasteri uchun SWOT tahlil⁹

S – Kuchli tomonlar	W – Kamchiliklar
• Respublikada eng yirik tutzor zichligi (≈ 26 mln tup yakka qator daraxt va 5,5 ming ga intensiv bog'lar), yuqori o'rta pilla hosildorligi (55–60 kg/kuti)	• Tutzorlar hosildorligi hududlar bo'yicha 25–30 % farq qiladi; sug'orish infratuzilmasining eskirganligi
• Marg'ilon, Quva va Asakaning tarixiy to'qimachilik merosi, ya'ni malaka bazasi	• Katta qismi uy sharoitidagi kasanachilik; sifat standarti, bo'yoq-moyqa suvlarini filtratsiya qilish tizimlari yetarli emas
• Rossiya, Xitoy, Qozog'istonga chiqadigan temir yo'l koridorlari	• Juda yuqori aholi zichligi (~ 560 kish/km ²) tufayli yer uchastkalari parchalangan, tutzorni kengaytirishga imkoniyat cheklangan
O – Imkoniyatlar	T – Tahdidlar
• PF-85 (01.06.2023) da ko'zda tutilishi: tutzor barpo etuvchilarga yer-soliq koeffitsiyenti 0,1 va 7 yillik imtiyozli kredit liniyalari, kapital xarajatni pasaytirish	• Mehnat migratsiyasi tufayli yosh kadrlar chiqib ketishi (yillik 4–5 %)
• KPOS (IoT sensor + ERP) joriy etish orqali suv sarfi 18 % ga qisqarishi	• Iqlim o'zgarishi $\rightarrow$ yozgi harorat $+1,6$ °C, bu qurt ovqatlanish sikllarini qisqartirib, pilla vaznini 5–7 % ga kamaytirishi mumkin (FAO prognozlar)

Ipakchilik klasterlarini hududiy moslashtirilgan asosda rivojlantirish uchun o'tkazilgan to'liq SWOT tahlillar – Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Navoiy kabi strategik nuqtalarning institutsional va resurs salohiyatini aniq namoyon etib berdi. Ushbu tahlillar nafaqat mavjud vaziyatni xolis baholashga, balki tarmoqning turli bosqichlari

9 Muallif o'rganishlari asosida shakllantirilgan



bo'yicha hududlararo funksional ixtisoslashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa tarmoq ichidagi gorizonttal va vertikal hamkorlik mexanizmlarini ilmiy asosda qurish uchun muhim konseptual asos hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi pillachilik uchun mamlakat miqyosidagi eng katta tutzor zaxirasi, tarixiy to'qimachilik salohiyati va yuqori aholi zichligi sababli, ayniqsa qishloq xo'jaligi va kasanachilik bosqichida kuchli o'rin egallaydi. Shu bilan birga, suv infratuzilmasining eskirganligi, yer maydoni cheklanganligi va ekologik standartlarning yetarli emasligi kabi zaif jihatlar bartaraf etilishini talab qiladi. Farg'ona klasterining istiqbolli imkoniyatlari – raqamli texnologiyalar joriy etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va logistika koridorlari bilan integratsiyalashuv orqali ichki samaradorlikni sezilarli oshirishga imkon beradi (2-jadval).

2-jadval. Qashqadaryo klasteri uchun SWOT-tahlil¹⁰

S – Kuchli tomonlar	W – Kamchiliklar
•Qashqadaryo vodiysidagi issiq-quruq iqlim qatorida kun nurlanishi ko'pligi tutzor hosildorligini 3–5 % ga oshirishi aniqlangan	•Suv tanqisligi: Qashqadaryo havzasida 2030 yilgacha 0,8–1,2 km ³ defitsit prognozi bor
•Ishchi kuchi sarfi: viloyatda qishloq aholisi ulushi 65 % — xonadon kasanachilik bazasi keng	•Fermier yer uchastkalari parchalang an (o'rtacha 0,6 ga) ⇒ mexanizatsiya qiyin
•Qarshi shahar orqali Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on (TBQ) temir yo'li Afg'oniston/Eron yo'nalishiga chiqishni 350 km ga qisqartirdi	•Brend dizayn va eksport marketingi bo'g'inlari hali shakllanmagan
•Qarshi, Shahrisabz va Yakkabog'da 3 ta kasb-hunar texnikumida "Pillachilik–to'qimachilik" yo'nalishi ochilgan (1350 o'quvchi/yil)	•Kichik fermerlarni ESG sertifikatga tayyorlash xarajatli (1 fermerga ≈250 \$)
O – Imkoniyatlar	T – Tahdidlar
•PF-85 (2023 y.) va tegishli qarorlar bilan tutzor ekinlariga yer soliq koeffitsiyenti 0,1; imtiyozli kreditlar SOFR+2 %	•Selitra va suv sarfi ortishi (xom ashyo tannarxi 8–10 % ga ko'tarilishi mumkin)
•"Termiz–Mazori Sharif–Qobul–Peshovar" koridori ochilsa, Janubiy Osiyo bozorlariga 5–7 kunlik tranzit	•Afg'oniston yo'nalishida xavfsizlik noaniqligi logistika xarajatini +1,5 % qiladi
•Kambag'allik qisqartirish dasturlari orqali 2025 yilgacha 18 minggacha ayol va yoshlar kasanachilikka jalb etilishi kutilmoqda	•Mulberry mosaic virus tarqalishi xavfi: mintaqada 2022 y. 4,2 % tutzor zararlangan

Qashqadaryo viloyatining afzallik tomonlari: quyosh nurlanishi yuqori bo'lgan iqlim sharoiti, mehnat resurslari ko'pligi va temir yo'l logistikasi orqali tranzit salohiyati bilan belgilanadi. Bu hududda kasanachilik, ayniqsa ayollar va yoshlar ishtirokidagi uy mehnati salohiyati yuqori bo'lgani bois, inklyuziv iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar (kambag'allikni qisqartirish dasturlari, kasb-hunar o'quv muassasalari bilan bog'liq islohotlar) orqali kichik subyektlardan iborat, lekin keng qamrovli klaster platformasi yaratish mumkin. Biroq suv tanqisligi, ESG sertifikatlash xarajatlari va mintaqaviy xavfsizlik muammolari hududning barqaror rivojlanishi uchun muhim tahdidlar sifatida saqlanib qolmoqda (3-jadval).

3-jadval. Navoiy klasteri uchun SWOT-tahlil¹¹

S – Kuchli tomonlar	W – Kamchiliklar
•"Navoiy" EIZ – 10 % foyda solig'i, logistika xab (multimodal aeroport)	•Tutzorlar maydoni kichik (≈8 ming ga); xom ashyo uchun boshqa hududlarga bog'liq
•Ochiq iqlimda quyosh quritish texnologiyasi (energiya sarfi –12 %)	•Ip to'quv kadrlar i hissasi sanoat kadrlar i ichida 4 % dan kam
O – Imkoniyatlar	T – Tahdidlar
•To'qimachilik kimyosi klasteri bilan sinergiya: biofilm va tut oqsil polimerlari	•Valyuta kursining yuqori o'zgaruvchanligi: 2023 y. so'mning USD-ga nisbatan 9 % devalvatsiyasi import jihoz qarzlarini qimmatlashtiradi

Navoiy viloyatidagi klasteri rivojlantirish istiqboli esa ko'proq sanoatlashgan to'qimachilik va biotexnologik yo'nalishlarga borib taqaladi. "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasining soliq va logistika afzalliklari, biofilm va tut oqsili asosidagi polimerlar singari innovatsion mahsulotlar yetishtiradigan kimyo-klasterlar bilan sinergiya tug'dirish imkoniyatlari ushbu hududni yuqori qiymat zanjiridagi vazifalar uchun mo'ljallashni taqozo etadi.

¹⁰ Muallif o'rganishlari asosida shakllantirilgan

¹¹ Muallif o'rganishlari asosida shakllantirilgan.

Biroq xom ashyoni ng boshqa hududlardan keltirilishiga bog'liqlik, mutaxassis kadrlar yetishmasligi va energiya samaradorligi yo'nalishidagi talablar mazkur klasteri muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun maxsus dasturlar joriy etishni taqozo etadi.

Shu tarzda har bir hudud bo'yicha amalga oshirilgan SWOT tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ipakchilik klasterining rivojlanish salohiyati faqat uning resurs bazasi bilan emas, balki institutsional moslashuv darajasi, ixtisoslashuv dinamikasi va o'zaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi bilan ham belgilanadi. Masalan, Farg'onada raqamli sensor texnologiyalarini joriy etish va kadrlar tayyorlash bo'yicha mavjud infratuzilma uni yuqori innovatsion pog'onada joylashtirishga imkon bersa, Qashqadaryoda energiya tejamkor ishlab chiqarish va ayollar mehnatiga moslashgan klaster modeli inklyuziv taraqqiyotga xizmat qiladi. Navoiyda esa, biotexnologik klaster asosida yuqori qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish imkoni mavjud.

Ipakchilik tarmog'i samaradorligini oshirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan rivojlanish strategiyasini shakllantirish, nafaqat mahalliy resurslardan samarali foydalanishni, balki tarmoqning innovatsion transformatsiyasiga xizmat qiladigan yangi institutsional mexanizmlarni joriy etishni ham talab qiladi. Ayniqsa, serqatlam klaster tizimining har bir bosqichida (tut yetishtirish, ip yechish, mato ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va eksport) o'z hududiga xos tabiiy, infratuzilmaviy, kadrlar va investitsiya sharoitlarini aniq baholash orqali strategik resurslarni to'g'ri yo'naltirish imkonini paydo bo'ladi.

Bu jarayonda Farg'ona, Qashqadaryo va Navoiy kabi hududlar uchun alohida SWOT-tahlillarning amaliy ahamiyati shundaki, ular orqali tarmoq bo'ylab resurslar, texnologiyalar va bilimlar oqimini ratsional taqsimlash mumkin. Masalan, Farg'ona vodiysida yuqori inson kapitali va tadbirkorlik muhiti mavjud bo'lsa, Qashqadaryoda quyosh energiyasi va EIZ imtiyozlari, Navoiyda esa logistika va kimyo-texnologiya salohiyati yuqori. Ana shu farqli ustunliklar klaster bo'g'inlarini funksional jihatdan differentsiatsiya qilish va hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli institutsional yo'l xaritasini ishlab chiqishda SWOT tahlil, ESG mezonlari, "Triple Helix" modellari hamda raqamli monitoring platformalaridan (masalan, "Silk Digital Platform") foydalanish, hududlarning tabiiy va institutsional potensialini aniqlash hamda tarmoq rivojining uzviylik va barqarorlik talablariga javob beradigan mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

Bu strategik yondashuv, o'z navbatida, hududlararo biri-birining ehtiyojini qoplaydi; investitsiya siyosatini ehtiyoj asosida yo'naltirishga yordam beradi; klaster bo'g'inlari o'rtasida innovatsion integratsiyani kuchaytiradi va, eng muhimi, milliy ipakchilik tarmog'ini raqobatbardosh va eksportbop tizimga aylantirish uchun institutsional baza yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlillar O'zbekistonda ipakchilik tarmog'ini hududiy moslashuv, innovatsion transformatsiya va ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya modeli orqali qayta shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Hududiy SWOT tahlillari va institutsional ssenariylar natijalariga ko'ra, tarmoqning barqaror rivojlanishi mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish hamda klasterlar o'rtasida samarali kooperatsiyani ta'minlashga bog'liq. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida infratuzilmani modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Olingan tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin:

- Ipakchilik klasterlarini hududiy resurslar va mehnat bozori imkoniyatlariga muvofiq tashkil etish hamda ular faoliyatini yagona raqamli platforma orqali muvofiqlashtirish;
- Ilmiy-tadqiqot institutlari va klasterlar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yib, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni davlat grantlari yordamida rag'batlantirish;
- Klasterlar faoliyatida ESG tamoyillarini (ekologiya, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv) bosqichma-bosqich joriy etish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Everitt, B. (1974). Cluster analysis. Quality and Quantity. <https://doi.org/10.1007/BF00154794>.
2. Newman, M. (2009). Random graphs with clustering.. Physical review letters, 103 5, 058701 . <https://doi.org/10.1103/PhysRevLett.103.058701>.
3. McNicholas, P. (2016). Model-Based Clustering. Journal of Classification, 33, 331 - 373. <https://doi.org/10.1007/s00357-016-9211-9>.
4. Boschma, R., & Fornahl, D. (2011). Cluster Evolution and a Roadmap for Future Research. Regional Studies, 45, 1295 - 1298. <https://doi.org/10.1080/00343404.2011.633253>.
5. Abdin, M., & Rahman, M. (2015). Cluster Development Models: Challenges and Opportunities. Political Economy - Development: Domestic Development Strategies eJournal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2631353>.
6. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.



7. Humphrey, J., & Schmitz, H. (2002). How Does Insertion in Global Value Chains Affect Upgrading in Industrial Clusters? *Regional Studies*, 36(9), 1017–1027.
8. FAO (Food and Agriculture Organization). (2021). *Silk Sector Development: Global Trends and Policy Recommendations*. Rome: FAO Publishing.
9. World Bank. (2023). *Uzbekistan Agriculture Competitiveness and Cluster Development Report*. Washington, DC.
10. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The Governance of Global Value Chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78–104.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100